

Т.Жумамуратовтың лирикасы көбінесе философиялық пикирлөуге, терең ойларға қурылған. Ол өзінің дөретиушілигинде хадаллық хәм адамгершилик пазыйлетлерди жоқары санап, өзінің қатнасын сәўлелендиреди. Сондай-ақ, лирикасында философиялық жуўмақлар менен бир қатарда педагогикалық жақтан тәлим-тәрбияға бағдарланған қосықлары да бар болып, олардың хәрқайсысы оқыўшыны ўатанды хәм халқын қадирлөуге, адамгершиликли болыўға хәм сондай-ақ, халыққа үлесип жасаўға шақырады:

Гөнермейди елге еткен жақсылық,
Қартайғанда еркелетер жас қылып,
Шенгел болып кесе турар алдыңнан,
Болса сенде хийле, тәсил, пәс қылық [3:17].

Бул қатарлар арқалы жақсылықтың хешқашан тозбайтуғынын керисинше сени барлық ўақытта елдің алдында жас қылып көрсетип туратуғынын сәўлелендирип өтеди. Бир қарағаннан жүдә эпийўайы сөзлер менен жазылған, бирақ тереңирек кирип барсақ түбинде үлкен мәни жатырғанын аңлаў қыйын емес. Яғный, өзінің халқына деген сүйиспеншилиги, меҳир-мухаббаты. Туўылып өскен елине, халқына жақсылық қылыўға шақырған шайыр, жақсылықтың да жаман қылықтың да ел арасында хешқашан умытылмайтуғынлығын жырлайды.

Т.Жумамуратовтың лирикасында фольклорлық дәстүрлерге садықлық айқын көзге тасланады. Сондай-ақ, киши лирикалық формалардан— төртликлер, рубайылардан баслап, сонетлер, балладалар, ири көлемдеги қосықлары, сатира-юморлық шығармаларында да халқына деген шайырлық көз-қараслары менен перзентлик мухаббаты хәрқыйлы поэтикалық образларда сәўленген. Елимиздің гөзаллығын, халқымыздың әсирлер даўамында бойына синген үрп-әдетлерин, турмыс ҳақыйқатлығын Тилеўберген Жумамуратовтың қосықлары мысалында ўғынамыз. Және де, тәлим-

тәрбия мәселесинде де жүдә көплеген қосықлар дөретти. Ийгиликли ислерди коллады, жаман иллетлерди қаралап, сынлық көз-қараста болды. Мысалы оның:

Өзин емес, журт өлшейди баҳаңды,
Билгиң келсе жақсы менен жаманды,
Мәрт майданда белли, деген нақыл бар,
Шамалы күн болып көрсин хамаллы [3:30].

Шайырдың бул қосығында инсаниятқа тән болған қубылмалы минез-хулықты баянлайды. Яғный, бунда шайыр қандай жағдай болса да, өзлигин жойтпай, адамгершиликли болған адамды ҳақыйқый мәрт деп есаплайтуғын лирикалық қахарман образын дөретеди.

Т.Жумамуратовтың сатиралық шығармаларында көтерип шыққан мәселелери хәзирги бизиң турмысымызда да ушырасады. Оның хәрбир сатиралық қосығының негизинде бүгинги күнде де жийи-жийи ушырасып туратуғын қәте-кемшиликлер сөз етиледі. Сонлықтан да, бул шығармалар хәзирги ўақытта да өз әҳмийетлигин жойтқаны жоқ.

Жуўмақлап айтқанда, Т.Жумамуратовтың дөретиушілигиндеги ўатан, дослық, мухаббат адамгершилик сыяқлы хәм т.б. темалардағы қосықлары фонында халықшыллығы турады. Өзи сөз еткен мәселеге жеке пикирин билдириў, философиялық жуўмақ шығарыўы шайырдың дөретиушілигиниң өзгешелигин билдирип турады. Ол сөз етип атырған темасына шайыр сыпатында емес, бәлким сол халықтан шыққан бир перзент сыпатында өзінің көзқарасларын билдиреди. Барлық ўақытта жақсы әмеллердің коллап-қуўатлаўшысы, ал жаман иллетлерди эшқаралап қоймастан оған өзінің жек көриўшилик сезимлерин айрықша бир теңеўлер менен көрсетип берийши халықшыл шайыр бола алды. Эпийўайдай болып көринген қатарлар арқалы қурама-лы темаларды сөз етеди. Ол өзінің жеке стилине, халықшыллығына өмириниң ақырына шекем садық қалды.

Әдебиятлар

1. Пахратдинов Ә., Алламбергенов К., Бекбергенова М. «XX әсир қарақалпақ әдебияты тарийхы». - Нөкис: «Қарақалпақстан», 2011.
2. Оразымбетов Қ. «Таңдамалы шығармалар топламы II том». - Нөкис: «Билим», 2008.
3. Жумамуратов Т. «Аралға келдим оралып». - Нөкис: «Қарақалпақстан», 2016.
4. Жумамуратов Т. «Өмириниң өзи философия». - Нөкис: «Қарақалпақстан», 2005.
5. Mambetov K. «Erte dawirdegi qaraqalpaq adabiyati». - Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2020.
6. Ахметов С., Есенов Ж., Жәрімбетов Қ. «Әдебияттануы атамаларының орысша-қарақалпақша түсіндірме сөзлиги». - Нөкис: «Билим», 1994.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада қарақалпақ халқ шоири Т.Жумамуратов ижодида халқона пафоснинг акс эттирилиши, инсонларға хос одамийлик, ҳалоллик, ватансеварлик сингари ҳислатларнинг тасвирланиши таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье изучаются отражение народного пафоса в творчестве каракалпакского народного поэта Т.Жумамуратова. Анализируются такие качества как человечность, честность, патриотизм.

SUMMARY

The article is devoted studies the reflection of folk paths in the work of the Karakalpak folk poet T.Jumamuratov. There have been analyzed such qualities as humanity, honesty, patriotism.

IKROM OTAMUROD DOSTONLARIDA FALSAFIY MUSHOHADALAR TAHLILI

S.Jumayeva – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: sheʼriyat, shoir, lirika, Sharq falsafasi, davr nafasi, ijod, ruhiyat, janr, doston.

Ключевые слова: поэзия, поэт, лирика, Восточная философия, дух времени, творчество, духовность, дух, жанр, поэма.

Key words: poetry, poet, lyric, Eastern philosophy, spirit of the time, creativity, psychology, genre, poem.

Taniqli shoir Ikrom Otamurod oʻzbek adabiyotini oʻzining xalqona anʼanalarga uygʻun holda yozilgan dostonlari bilan boyitib kelayotgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Shoirning “Yarador umid otlari”, “Uzoqlashayotgan ogʻriq”, “Sopol siniqlari”, “Ichkari... Tashqari...”, “Ictarim”, “Yobondagi yolgʻiz daraxt”, “Aning umidi”, “Xaritaga tushmagan joy”, “Muqaddar”, “Iztiror”, “Balki”, “Tagʻazzul”, “Dogʻ”, “Qush”, “Tavr”, “Jadval”, “Huviyyat”, “Ishora” singari asarlari oʻzbek dostonchiligining sara namunalari sifatida eʼtirof etiladi. Bu asarlarda inson ruhiyati tasviri oʻzining koʻlamdorligi, badiiyligi, ramziy obrazlar va falsafiy mushohadalar orqali

katta ijtimoiy maʼno – mazmun tashishi bilan xarakterlanadi. Adibning “Ichkari... Tashqari...” dostoni insoniyatning botiniy va zohiriy hayotining falsafiy mohiyatiga asoslangan. Zero, inson hayotining mukammalligi ayni shu ikki qutbning uygʻunligiga, mukammalligi va bir-birini toʻldirishiga bogʻliq. Chunki nazariyasiz amaliyot, amaliyotsiz nazariya boʻlmaganidek, ichkarisiz tashqari, tashqarisiz ichkari boʻlmas. Shuningdek, tashqi hayotning toʻlaligi, ichki hayotning mukammalligiga chambarchas bogʻliq. Oʻz navbatida, tashqi olam ham ichki olamga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Bu holatni shoir shunday izohlaydi:

Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
istayur tashqarida to'luvni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
istayur ichkarida bo'luvni.
Ichkari tashqariga chiqmoq istayur,
istayur tashqarida javobni.
Tashqari ichkariga kirmoq istayur,
istayur ichkarida tavobni. [1:29].

Inson fikrlash, mulohaza qilish qobiliyatiga ega bo'libdi-ki, tashqi olamni mukammal bilishga intiladi. Ammo unga muyassar bo'lish osonlik bilan kechmaydi. Chunki insonning o'zi hali-hanuz to'liq mukammallikka, komillikka erishgani yo'q. Zigmund Freyding fikriga ko'ra, "...Odamzod o'zining mohiyatini bilmaydi, yoki... bor haqiqatni tan olgisi kelmaydi. Bu borada u yo riyokorlik qiladi yoki o'zi xususida haqiqatan ham chuqurroq tushunchaga ega emas" [2:63]. "Ichkari... Tashqari..." dostoni zamirida xuddi shu haqiqat mujassam. Shundan shoir:

Tashqari – g'ussa.
Ichkari – huvaydo.
Tashqari – nadomat.
Ichkari – gulgul.
Tashqari – shamolga sovrilar saydo.
Ichkari – ruhga to'kilar kan gul... [1:29].

deydi. Bu holatni ikki ma'noda tushunish lozim. Bugungi kunda bu ikki olam – tashqari va ichkari bir-biriga uyg'un emas. Inson tasavvuridagi olamni tashqarida ko'ra olmaydi. Chunki insonlar ilohiy axloq bilan yashamayapti. Unga yo'l qo'ygan tashqi olamdan bu kabi shaxslar mamnun. Vaholanki, ularning a'molidan tashqi olam simyon. Ilohiy axloq bilan yashaydiganlar, ya'ni o'zining mohiyatini anglaydiganlar esa sukunatda nola qiladilar. Ilohiy axloq bilan yashamaydiganlar haqida Qur'oni Karimda shunday deyilgan: "Mol-mulk, farzandlar, dunyo hayotning ziynatidir. Rabbingiz nazdida esa, boqiy qoluvchi solih amallar savobliroq va orzu qilishga loyiqroqdir" [3:299]. Demak, barcha ilohiy axloq bilan yashasa, ichki va tashqi olam uyg'un kechadi, dunyoviy olam mukammallashadi, shunda insonning amallari keng quloq yozadi. Oqibatda inson dunyoviy saodatga erishadi. Bu esa inson ko'nglining pokligiga bog'liq. Chunki ma'rifatli odamning ko'ngli hayotning har bir jabhasidan poklanadi, o'zini anglab boradi:

Hayroning ham kanglungda,
Vayroning ham kanglungda.
Oring ham kanglungda,
Xoring ham kanglungda...
To'zing ham kanglungda,
o'zing... ham kanglungda... o'zing... ham kanglungda... [1:32].

Sharqda azal-azaldan ko'ngil tarbiyasi ustuvorlik qilib kelgan. Ajdodlarimiz bezovta qalb va bedor "kangul" gina ruhiyat kengliklarini anglashga qodir ekanini yaxshi tushunishgan. Shundan shoir yozadi:

Kanglumning ichiga kirib boraman,
kanglumni axtarib, kanglum.
Zora topsam, zora-a man,
jonim to'zib?!
Kanglumning ichiga kirib boraman,
ruhimni axtarib ruhim.
Zora topsam, zora-a man,
intizor munglim?! [1:35].

Ikrom Otamurodning "Sopol siniqlari" dostonida badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanish san'ati orqali hayotdagi voqelikni falsafiy tasvirlashda o'ziga xos individual izlanishni namoyon etadi. Asar mazmunidan shoirning falsafiy mushohadasida, xotiralarida, dardlarida insoniyatning o'rni, yurtning boshiga tushgan kulfatlari hamda eng muhimi dunyo deb atalmish borliq voqea-hodisalaridan iztirobga tushgan qalb tebranishlarini his qilamiz. Dostonda shoir ramziy tasvirlarga keng o'rin beradi va o'z navbatida bu tasvirlarga katta g'oya viy-badiiy vazifa yuklaydi. Shoir botnida tug'ilgan fikr uning

jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qonida o't yoqib, ko'ksida tipirchilab uyg'onadi. Asar voqelari Holat va Rang deb nomlangan qismlar orqali tasvirlanadi. Holatlar, o'z navbatida, mumtoz adabiyotimiz sahifalaridan keng o'rin olgan maqolat va hikoyat kabi namunalarni yodga soladi.

Ma'lumki, maqolat nazariy yo'nalishda bo'lsa, hikoyatda o'sha yo'nalishlar amaliyotda o'z ifodasini topadi. Holat qismida falsafiy-nazariy yo'nalishda hayot haqiqati ochib berilsa, Rangda esa kechagi va bugungi hayot manzaralari o'z ifodasini topadi. Holatda shoir yozadi:

...Odam bolasi bir xil hayot tarzidan,
qachondirkim bo'lmasin, zerikadi...
Zerikish –
Boshqa shaklning istagi.
Ruhiyatda sodir bo'lgan bu hodisa –
yangi royishni, yangi xohishni, qidiradi...
...Sog'inib yashaydi...
notanish manzillarni...

Har qandayin portlash, avvalambor,
Odam bolasining ruhiyatida kechadi...
Yuragida tomir otadi...
So'ng, keng maydonga qo'nadi. [6:143-144].

Ayni satrlarda samimiylilik, tuyg'ular tiniqligi, mazmun va shakl mutanosibli, tasvirdagi tabiiylik va ichki drammatizm asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatini belgilaydi. Zero, bunday holat ma'naviyati boy, ruhi tetik, doimo yangilikka intiladigan shaxslardagina sodir bo'ladi. Dunyo taraqqiyoti shu kabi insonlarning sa'y-harakati tufaylidir. Dostondagi lirik qahramon shunday inson. U hayotdan ham, o'zidan ham qoniqmaydi. Uning tabiati, asta-sekin kitobxonga ham ko'chadi. Rangda shunday satrlarni o'qiymiz:

Mog'orlaydi. Zang bosar. Muzlar,
unutilar ko'p yo'laklari.
Tepalar qa'ridagi izlar –
xotira bo'laklari.
Loyga botib siniqqan kamon –
Yurt ori deb to'kilgan darddir.
Qo'lda lochin tutgan pahlavon –
Qadrin quchib yiqilgan marddir.
ko'milgan imondir, ko'milgan tildir
tepalar...Ko'milgan Vatandir.

Ko'milgan yeldir, tepalar... [6:145-146].

Anglashiladiki, dostonda teran falsafiy mushohadalar, salmoqli poetik fikrlar bilan jo'shqin his-tuyg'ular uyg'unlashib ketgan. Unda yurtimiz boshidan kechirgan yaqin tariximizdagi mudxish manzaralar tasviri aks ettirilgan. Zero, bunday asarlarda badiiy tasvir orqali millat turmush tarzi va mustamlakachilik siyosati yuzaga keltirgan ma'naviy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topadi.

Shoirning "Sen" nomli dostonida falsafiy mazmun ancha chuqur. Sog'inch falsafasi bilan yo'g'rilgan mazkur dostonda shoir soniyalardan yaralmish – vaqt – umrning ma'nosi va mohiyatini anglab yetishga urinadi. Shoir yozadi:

Sen yo'g' eding ... Kelding ...
Yo'l – sog'inch ... Vaqt – sog'inch ...
Makon – sog'inch ... Susambil ...
Yo'l – sog'inch ... Vaqt – sog'inch ...
Kangul – sog'inch ... Haq – sog'inch ...
Imkon – sog'inch ... O', tang dil ... [7:26]

Yashab bo'lingan umr, behuda sovrilgan Vaqt, armonga aylangan muhabbat tasvirida sog'inchdan o'rtangan shoir qalbi mahzun holga tushadi. Lirik qahramon nazdida hatto vaqtning diydasi tosh qotgan. Sog'inchga aylangan tuyg'ular qarigan:

Sog'inib-sog'inib kutganim – dunyom ...
Yurak- yuragimdan talpingan bittam ...
Diydasi tosh qotgan vaqtning qobirg'alari
mayishiblar ketsin, suyanchi
ko'tarolmay sog'inchlarning sobirg'alarin ...

Сог'инчларинг сог'индим, сог'индим ... [7:65]

Сирдан қарганда, сог'инч алами фақат шoirнинг о'зига тегишлидек туйулади. Лекин мисрадан мисрага о'тганимиз сайин унинг уфқи кенгайиб, ко'з о'нгимизда босиб о'тган yo'лимиз, ҳайотимиз jonлана бoшлайди, аста-секин унинг замидидаги моҳият бо'й ко'рсатади. Оқибатда сог'инчдан яралган бу армон бarchамизники еkanлигига ишонч ҳосил қиламиз.

Ikrom Otamurod she'riyati замидидаги poetik асоснинг ҳайотийлиги ва фaлсафийлиги "Ishora" номли дostonида янада yorqinроқ, янада terанроқ, янада joзибaлirоқ акс etadi. Бу асар shoir лирикасида фaлсафийлик kuchayганини, инсон образи, унинг ички дунyosi ҳар toмонлaмa чуқур ochилa бoрганини ко'рсатади. Shoir ilk сaтрларидayoқ yorqin бир ҳайотий фaлсафа яратади:

... Вақт ишорани о'зига joyлар,
ishora о'зига joyлар вақтни ...
... Dahr ишорани о'зига joyлар,
ishora о'зига joyлар dahrни ...
... Gardun ишорани о'зига joyлар,
ishora о'зига joyлар gardunни ...
... Borliq ишорани о'зига joyлар,
ishora о'зига joyлар borliqни ...
... Eh,
ishora!
ishora о'zining
imkonini yo'llaydi:

har qaysi

har yo'sinning

tarz siymosidan ... [8:36-37]

Qayd etish joizki, "Ishora"da keltirilgan sirlar ko'lami keng va nihoyatda rang-barang. Asar o'ziga xos obraz, poetik ifodalar ko'lami va tizimiga ega. Xususan, shoir vaqt, dahr, gardun, borliq, quyosh, hilol, kun, tunga bo'lgan ishoralar tasvirida kitobxon ko'z o'ngida xalqimiz tarixidagi mash'um haqiqatni jonlantiradi. "Shoir dastavval, ashylarning o'zida muayyan ishoralar mavjudligini ko'radi. So'ngra ularning harakat maromi – ishoralarning ishorasi unga o'z sirlarini ochadi" [8:37-38]. Bundan tashqari, asarda sadoqatning, insoniylikning, poklikning, niyatning yetukligiga ishoralar mujassam. Shoir inson botnidagi tuyg'ularni bir umr ichki halovot izlagan lirik qahramon obrazi orqali ifodalaydi. Bu kabi jihatlar shoir ijodi va shaxsiyatini belgilovchi asosiy mezon sifatida o'ziga xoslik kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Ikrom Otamurod – o'zbek adabiyotida o'z uslubi, o'z yo'nalishiga ega dostonnavis shoir. Uning qalamiga mansub dostonlar mazmunida teran ruhiy tafakkur va faylasufona mushohada mujassam. U qaysi mavzuda qalam tebratmasin tasvirdagi voqelikni falsafiy mushohadalar talqinida aks ettiradi. Shoir ijodiy fantaziyasida inson ruhiyatidagi yashirin botiniy va sirli olamlarni kashf etish hamda unga falsafiy yondashuv prinsiplari yetakchilik qiladi.

Adabiyotlar

1. Ikrom Otamurod. Tavr. - T.: «Yangi asr avlodi», 2005.
2. Hasanov Sh. Dostonlarda shoir shaxsiyati talqini. // O'zbek tili va adabiyoti. 2001. №3.
3. Qur'oni Karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. (Tarjima va tafsir muallifi: A. Mansur). -T.: Toshkent islom universiteti, 2004.
4. Arnaudov M. Psixologiya literaturnogo tvorchestva. – M.: «Nauka».1970.
5. Seytin A.T. Trud pisatelya. – M.: «Nauka».1968.
6. Ikrom Otamurod. Muqaddar: She'rlar va dostonlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
7. Ikrom Otamurod. Sen. // She'rlar va dostonlar. -T.: Qatortol-Kamolot, 1999.
8. Ikrom Otamurod. Ishora. // «Sharq yulduzi». 2019. №4.

РЕЗЮМЕ

Har qanday inson ma'naviyatini shakllantirishda badiiy adabiyot keng imkoniyatga ega. Shu ma'noda, shoir Ikrom Otamurod ijodini tizimli ravishda o'rganish zarurati mavjud. Maqolada shoir Ikrom Otamurod dostonlarining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

Художественная литература обладает широким спектром возможностей в формировании духовности человека. В этом смысле возникает необходимость системного изучения творчества поэта Икрама Атамурата. Статья подводит своеобразный итог поэмы поэта Икрама Атамурата место в узбекской литературе.

SUMMARY

The success of reforms in society largely depends on the spiritual and social level of members of the society. In the formation of any human spirituality, fiction has a wide range of possibilities. In this sense, there is a need for systematic study of Ikram Atamurad work in poeme. The article determines the place of Ikram Atamurad in the Uzbek literature.

АРАЛБӨЙЫНДАҒЫ ХАБАР БЕРИЎ МИНАРЛАРЫНЫҢ ӨТМИШТЕГИ ӘХМЙЕТИ

Е.Е.Қанаатов – филология илимлери бойынша философия докторы

Әженияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: Жанубий-шарқий Устюрт, Оролбўйи, хабар бериш миноралари, маёк, савдо карвон йўллари, мўғуллар, кўчманчи қабилалар.

Ключевые слова: Юго-восточный Устюрт, Приаралье, сигнальные башни, маяк, караванный путь, монголы, кочевники.

Key words: South-Eastern Ustyurt, Aral Sea region, signal towers, lighthouse, caravan route, Mongols, nomads.

Әмиўдәрйя районы аймағында саўлат төгип тұрған Шылпық естелиги көрген адамның итибарын тартпай қалмайды. Қарақалпақстанның символы саналған ұсы естелик тарийхта бирқатар ўазыйпаларды атқарғаны дәлийлленген. Дереклерде Шылпықтың зороастризм мәдениеті ҳүким сүрген пайытта дахма (бийикликтеги мархұмды жерлеў орны) ўазыйпасын өтегенлиги айтылса [1], базы мағлыўматлар бойынша, орта әсирлерде дүшпанлардан қорғаныў ушын қорған сыпатында да хызмет еткен, сондай-ақ ұсы естеликтен және маяк сыпатында да пайдаланылған [2]. Қарақалпақстанда буннан басқа онлап маяклар табылған, олар мәмлекетлик әхмийеттеги қорғалатуғын естеликлер қатарына киргизилген [3].

Хабар бериў минарлары Хорезм мәмлекетинде Х-ХІІІ әсирлерде қурылған [4]. Археологиялық қазылма-

лар ўақтында табылған гүзе ыдыслардың ХІІ-ХІІІ әсирлерге тийисли екенлиги анықланды [5:15].

Тарийхтан мәлим болғанындай, ІХ-ХІІІ әсирлерде Әмиўдәрйяның тийқарғы саласы (Дәрйялық каналы) Ўстирттиң шығыс чинки етеги бойлап, яғный, Айбўйирден Судочье көлине арқаға қарай аққан. Ўсы дәўирлерде Ўстирттиң қубла-шығыс чинки бойлап қурылған маяклар суў кемелери ушын жол көрсетиўши хызметин де атқарған.

Ўстирттиң шығыс чинки бойлап қалалардың жедел раўажланыўын ҳәзирги күнде кеўип қалған Дәрйялық каналындағы кемешилик қатнасының жолға қойылғаны менен байланыстырыў мүмкин. Ал, чинк бойлап ҳәр 8-10 км аралықларда жайласқан хабар бериў минарлары (маяк) суў жолындағы саўда ушын хызмет еткен [6:81-82]. Саўда кемелери жақынласқанда бириншиден, бул маяклар белги бериў (навигация) ўазыйпасын атқарса,